



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umiddjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiқ o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуқабар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSİYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGİYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGİYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI.....	269
Quliyev Begimqul Melikovich	



INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI



Quliyev Begimqul Melikovich

SamISI "Investitsiya va innovatsiyalar"
kafedra dotsent v.b., PhD
bekkuliye8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion klasterlarni moliyalashtirishning nazariy va metodologik tamoyillari tahlil qilinib, ularda qo'llaniladigan qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish vositalari o'rganiladi. Shuningdek, innovatsion klasterlarni rivojlantirishga oid global tendensiyalar yoritiladi, chunki turli mamlakatlar mazkur mexanizmlarni joriy etishda o'ziga xos yondashuvlarni qo'llaydi va natijalar ham farqlanadi. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy tamoyillari aniqlanib, mintaqaning investitsiya riski darajasidan kelib chiqqan holda klasterning investitsiya jozibadorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: innovatsion rivojlanish, moliyalashtirish, klaster, davlat dasturlari, qo'llab-quvvatlash vositalari, innovatsion klaster, innovatsiyalarni moliyalashtirish, sinergetik effekt, investitsiyalar.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological principles of financing innovative clusters and examines the support and incentive tools applied in their development. Global trends in the formation and growth of innovative clusters are also explored, as different countries adopt diverse approaches to their implementation, resulting in varying outcomes. The key principles of financing innovative activities are identified, and the investment attractiveness of a cluster is assessed based on the level of regional investment risk.

Key words: innovative development, financing, cluster, state programs, support tools, innovation cluster, innovation financing, synergistic effect, investment.

Аннотация. В статье анализируются теоретические и методологические принципы финансирования инновационных кластеров, а также инструменты поддержки и стимулирования, применяемые в процессе их развития. Рассматриваются глобальные тенденции развития инновационных кластеров, поскольку различные страны используют отличающиеся подходы к их реализации, что приводит к разным результатам. Определены основные принципы финансирования инновационной деятельности и дана оценка инвестиционной привлекательности кластера с учётом уровня инвестиционного риска региона.

Ключевые слова: инновационное развитие, финансирование, кластер, государственные программы, инструменты поддержки, инновационный кластер, инновационное финансирование, синергетический эффект, инвестиции.

KIRISH

Insoniyat sivilizatsiyasining zamonaviy rivojlanishi iqtisodiyotning barcha darajalarida qarorlar qabul qilish jarayonlarining raqamlashtirilishi va global raqobat sharoitida bilimga asoslangan texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi natijasida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu holat milliy iqtisodiyotlar uchun barqaror o'sish parametrlarini murakkablashtirib, ularni uzluksiz innovatsiyalarni joriy etishga majbur etmoqda. Bugungi global sharoitda iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi korxonalarning innovatsion va investitsiya faoliyatini samarali boshqarish, shuningdek, innovatsion klasterlarni tashkil etishda fan, ta'lim va



ishlab chiqarishning integratsiyasi ularning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayon, o'z navbatida, innovatsion klasterlarni amalga oshirishga qaratilgan qator loyihalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion klasterlarni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad shahar, tuman yoki viloyat hududida joylashgan bir xil soha korxonalarini, shuningdek, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, muhandislik, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlash va boshqa xizmatlarni yagona texnologik zanjir doirasida birlashtirishdan iborat bo'lib, bu innovatsion ishlab chiqarishga asoslangan raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv sanoat korxonalarining innovatsion va investitsiya jarayonlarini samarali va tizimli boshqarish imkonini beradi.

Mamlakatimizda klaster tizimini keng joriy etish Prezident tomonidan ilgari surilgan, mamlakatning jadal rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim innovatsion g'oyalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, respublikada innovatsion klaster modelini shakllantirish, uning boshqaruv tizimini samarali tashkil etish bilan bog'liq muammolarni aniqlash, xorijiy tajribadan oqilona foydalanish orqali mazkur modelni takomillashtirish hamda shakllanayotgan innovatsion klasterlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash orqali sanoat tarmoqlari samaradorligini oshirish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu maqolada klaster siyosatidan foydalangan holda innovatsion iqtisodiy rivojlanishni amalga oshirishning moliyaviy jihatlarini ko'rib chiqiladi. Innovatsion klasterlar raqobat asosida shakllantiriladi va mintaqaning innovatsion tizimini rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, asosan, birgalikda moliyalashtirish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Innovatsion klasterlar doirasida maxsus iqtisodiy zonalar, imtiyozli soliqqa tortish mexanizmlari, turli resurslardan foydalanish imkoniyatlari hamda mintaqaviy rivojlanishni jadallashtiruvchi innovatsion infratuzilma shakllantiriladi. Hozirgi kunda respublikada ko'plab innovatsion va investitsion rivojlanish institutlari hamda innovatsion infratuzilma subyektlari tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritmoqda.

Klaster siyosatini moliyaviy jihatdan amalga oshirish klasterlarni rivojlantirish markazlari va klaster rivojlanish dasturlarini yaratishga qaratilgan turli subsidiyalarni ajratish orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan "Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion iqtisodiyot" davlat dasturining alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Bugungi sharoitda iqtisodiyotni raqamlashtirish innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Internet muhiti tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillari bozorlarining rivojlanishini jadallashtirib, makro va mezo-iqtisodiy boshqaruvga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, davlat sektorining faolligini oshirishni taqozo etadi. Mazkur holat klasterlashga bo'lgan qiziqishning ortib borishini izohlaydi, chunki mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar mamlakat iqtisodiy tizimining barcha tarkibiy qismlarini samarali rivojlantirishda klaster yondashuvini qo'llash zarurligini asoslab bergan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion klasterlar O'zbekiston va xalqaro qonunchilikda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Klasterlar turli davlat dasturlari orqali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq hozirgi kunda innovatsion klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun eng qulay va samarali yechim hali to'liq ishlab chiqilmagan. Albatta, klaster faoliyatini turli jihatlarida tahlil qilish imkonini beruvchi metodologiyalar mavjud. Shunga qaramay, tahlil qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy sharoitlarda innovatsion klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash uchun oddiy, ixcham va ayni paytda samarali usul zarur. Bunday usulni ishlab chiqish esa, avvalo, innovatsion klaster tushunchasining aniq mohiyatini belgilab olish bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Innovatsion klaster va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, miqdoriy va sifat jihatidan tadqiqotlar olib borish uchun aniq ta'rifga ega bo'lish ilmiy izlanishlarni belgilangan doirada amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa olingan natijalarni takrorlash va muayyan qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi, mazkur holatlar esa ilmiy usulning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli innovatsion klasterlarning aniq va tushunarli ta'rifini shakllantirish zarur.

Dastlab klaster sof hududiy birlik sifatida qaralgan, ya'ni bitta hududda joylashgan bir qator kompaniyalar, muassasalar va tashkilotlar, jumladan, ilmiy va ta'lim muassasalari majmuasi sifatida talqin etilgan. Ushbu tashkilotlar xodimlari o'z faoliyatini aynan shu hududda amalga oshirgan. Biroq zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi natijasida klaster tarkibidagi tashkilotlar xodimlarining o'z kompaniyasi yoki klaster hududida jismonan mavjud bo'lmasdan faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan holatlar yuzaga keldi. Xodimlar dunyoning deyarli istalgan nuqtasidan masofadan turib ishlashi mumkin, biroq klaster va uning a'zolari o'z faoliyati natijalarini olishda davom etadi. Natijada innovatsion klaster hududiy



chegaralar doirasida qolgan holda, o'z ta'sir doirasini deyarli cheksiz makon va vaqt oralig'iga yoyishi mumkin bo'lgan holat shakllanmoqda. Shu bois mavjud klaster tushunchalari amaldagi ta'riflar doirasidan tashqariga chiqmoqda.

Innovatsion klasterlarning yangi ta'rifini ishlab chiqishda mavjud klaster ta'riflari doirasida ko'rib chiqiladigan to'rtta asosiy jihatni inobatga olish maqsadga muvofiq, jumladan:

1. klaster ichidagi o'zaro ta'sir uchun yangi imkoniyatlar, ya'ni tashkilot va uning xodimlarining rasmiy mavjudligi bilan bir qatorda, ularning klasterdan tashqarida real faoliyat yuritishi;

2. klasterlashning ijtimoiy jihatlar;

3. klasterlashning innovatsion jihatlar;

4. klasterlashning iqtisodiy jihatlar.

Klasterlarning mavjud ta'riflarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, birinchi ta'rif sifatida Maykl Porter tomonidan berilgan yondashuvni qayd etish lozim. Uning ta'kidlashicha, klaster yoki sanoat guruhi geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, o'zaro bog'liq kompaniyalar hamda muayyan sohada faoliyat yurituvchi, umumiy faoliyat bilan tavsiflanadigan va bir-birini to'ldiruvchi tegishli tashkilotlar guruhidan iborat. Ushbu ta'rifda klaster hududning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish vositasi sifatida bevosita ko'rib chiqilmaydi. Eng muhimi, mazkur yondashuv klasterlarni hamkorlik qiluvchi va bir vaqtning o'zida raqobatlashuvchi, yaqin joylashgan kompaniyalar majmui sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, Porter klasterlarning an'anaviy afzalliklaridan biri yirik innovatsiyalarni yaratish va ularni iqtisodiy o'sishga aylantirish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi.

M. Enright klasterlarni hududiy jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan sanoat guruhi sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rif klaster tarkibidagi kompaniyalarning geografik yaqinligiga alohida urg'u beradi.

D. B. Audretsch va M. P. Feldmann klasterlarni iqtisodiy faoliyatning geografik yoki fazoviy bog'liqligi, sanoat tarmoqlari o'rtasidagi gorizont va vertikal munosabatlar, umumiy texnologiyalardan foydalanish, dominant ishtirokchining mavjudligi hamda firma tarmoqlarining sifati va ularning hamkorligi bilan tavsiflaydi. Bu yondashuvga ko'ra, klaster iqtisodiy faoliyatni emas, balki geografik yoki fazoviy jihatdan birlashgan yuridik shaxslar va tadbirkorlarni birlashtiradi.

Klasterlash masalalariga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar muallifi S. Rozenfeld klasterlarni geografik yaqinlik va o'zaro bog'liqlik natijasida sinergetik ta'sirga erishuvchi korxonalar kontsentratsiyasi sifatida ta'riflaydi. U klasterlarni biznes bitimlari, aloqa va muloqot uchun faol kanallarga ega bo'lgan, ixtisoslashgan infratuzilma, mehnat va xizmatlar bozorlarini shakllantiruvchi hamda umumiy imkoniyat va tahdidlarga duch keluvchi o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi tijorat faoliyati turlarining geografik jihatdan cheklangan kontsentratsiyasi sifatida izohlaydi. Mazkur yondashuvda klaster doirasida erishiladigan sinergetik ta'sir alohida e'tirof etiladi.

E. Feser klasterlarni o'zaro bog'liq va bir-birini qo'llab-quvvatlovchi institutlar majmui sifatida talqin etadi hamda mazkur aloqalar natijasida ularning individual raqobatbardoshligi ortishini ta'kidlaydi. Ushbu ta'rif ma'lum darajada zamonaviy klasterlarning mohiyatini aks ettiradi, chunki u klasterlarning aniq bir hudud yoki qat'iy geografik lokalizatsiya bilan cheklanib qolishini nazarda tutmaydi.

A. Migranyan klasterlarni raqobatdosh firmalar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshiriladigan, sanoat, milliy va global bozorlarda raqobatbardosh mavqeni ta'minlovchi eng samarali va o'zaro bog'liq iqtisodiy faoliyat turlarining konsentratsiyasi sifatida izohlaydi. Ushbu ta'rifda raqobatbardoshlik va klaster ishtirokchilarining hududiy joylashuvi bilan bog'liq faoliyat konsentratsiyasiga urg'u beriladi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, innovatsion klasterga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ta'kidlash mumkin: ixtisoslashgan xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan to'ldiriladigan, ichki va tashqi bozorlarda sezilarli ulushga ega yetakchi firmalarning mavjudligi; klaster ishtirokchilarining noyob raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlovchi muayyan hududda jamlanishi; mintaqaning raqobatbardoshligini va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida klaster ishtirokchilari o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sir; klaster ichidagi raqobat muhiti; yagona axborot makonining joriy etilishi orqali klaster doirasida innovatsiyalarning tezkor tarqalishi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsion klasterlarni tashkil etish va rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlarini o'rganishda statistik, taqqoslama va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik manbalari, tarmoq vazirliklari va idoralari hisobotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar e'lon qilgan ochiq ma'lumotlar bazalaridan olindi. Tadqiqot jarayonida klasterlar faoliyatini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkichlar, investitsiya hajmlari, ishlab chiqarish natijalari va eksport salohiyati bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar, nisbiy ko'rsatkichlar va qiyosiy ustunlik indeksleri yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, xorijiy tajribani baholashda taqqoslama tahlil qo'llanilib, moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi aniqlanib, umumlashtiruvchi xulosalar shakllantirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va sanoatlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan sharoitda klasterlar tizimini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barcha tarmoqlar va hududlarda klasterlarni puxta o'ylab shakllantirish ularni mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan samarali vositaga aylantirish imkonini beradi. Jumladan, agrosanoatda klasterlarni shakllantirish mamlakat taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Bu sohada klasterlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik kabi komplekslarni yaratish, raqobatbardosh, yuqori texnologiyali va eksportbop to'qimachilik hamda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish omili sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda klasterlar shakllanishning dastlabki bosqichida bo'lganligi sababli klasterlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'atlarini tegishli sanoat tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari bilan taqqoslashni nazarda tutuvchi klasterli o'sish yondashuvini tanlash maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqqan holda, paxta-to'qimachilik va meva-sabzavot sanoatida klasterlarning samaradorligini baholash uchun mehnat unumdorligi, eksportdagi o'rni, investitsiyalarning daromadlilik darajasi hamda qiyosiy ustunlik indeksi (Comparative Advantage Index)dan foydalanildi. Klasterlar tizimida mehnat unumdorligini hisoblash uchun muayyan vaqt oralig'ida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmini ishlab chiqarishga jalb qilingan xodimlar soniga bo'lish formulasidan foydalanildi.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan paxta-to'qimachilik va meva-sabzavot klasterlari aynan ishlab chiqarish sanoati tarkibida shakllantirilmoqda. O'zbekistonda 2017-yildan boshlab paxta-to'qimachilik va meva-sabzavot klasterlari tizimi joriy etila boshlandi. Natijada 2017-2022 yillarda mamlakatda 506 ta klaster shakllantirildi. Ular tomonidan 28,7 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, mamlakatimizda klasterlar soni 353 tani tashkil etib, ularning tarkibidagi korxonalar soni 383 taga yetdi. Klasterlar tarkibidagi korxonalarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 23 918,4 mlrd so'mni tashkil qildi. O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi esa klasterlar tarkibidagi korxonalarda 16,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi klasterlar tarkibidagi korxonalarda 3 012,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori klasterlar tarkibidagi korxonalarda 68,0 mlrd so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Debitor qarzdorlik miqdori klasterlar tarkibidagi korxonalarda 4 820,2 mlrd so'mni, kreditor qarzdorlik miqdori esa 6 511,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Respublikadan tashqariga (eksportga) yuklab jo'natilgan sanoat mahsulotlari (tovarlar va xizmatlar) hajmi klasterlar tarkibidagi korxonalarda 2 959,0 mlrd so'mni tashkil etdi¹.

Innovatsion klasterlarni samarali boshqarish uchun klasterlarni rivojlantirish vositalarini ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish, klasterlar rivojlanishini monitoring qilish metodologiyasini ishlab chiqish hamda klaster ichidagi korxonalarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish tizimini shakllantirish zarur. Mamlakatimizda innovatsion klasterlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning bunday mexanizmlari hozirgi kunda endigina shakllanib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatni tashkil etish hamda boshqarishda klaster yondashuvidan foydalanish mintaqaviy va tarmoq rivojlanishiga oid muammolarni hal etishga yordam beradi hamda hukumat, biznes, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi. G'arb mamlakatlari milliy innovatsion dasturlarini ishlab chiqishda klaster yondashuvidan faol foydalanmoqda.

Birinchidan, klasterlar tarmoq muhitida biznes faoliyati uchun qulay sharoit yaratadi. Ikkinchidan, klasterlar ichidagi mehnat unumdorligi mamlakat aholisi turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Uchinchidan, klaster siyosati davlat idoralari tomonidan mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va umumiy milliy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan ko'p qirrali chora-tadbirlar majmuasini ifodalaydi. To'rtinchidan, klaster siyosati raqobatni rivojlantirish orqali innovatsiyalar uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

G'arb tajribasiga oid mavjud tadqiqotlar hanzugacha "model" klaster va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari qanday bo'lishi lozimligi masalasiga aniq javob bermaydi. Shu bilan birga, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid yondashuvlari mamlakatimiz uchun nisbatan samarali bo'lishi mumkin. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Shvetsiya kabi davlatlar innovatsion rivojlanishning turli modellarini ishlab chiqqan bo'lsa-da, ular klaster rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda o'xshash mexanizmlar va vositalardan foydalanadi. Asosiy modellar quyidagilardan iborat:

- to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish (subsidiyalar, kreditlar), yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratish xarajatlarning 50 % gacha qismini qoplash (Germaniya, Fransiya);

1 www.stat.uz ma'lumotlari



- korxonalar uchun soliq yukini kamaytirish, jumladan, soliq bazasidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari hamda investitsiyalarni chiqarib tashlash, shuningdek, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari uchun imtiyozli soliqqa tortish (Germaniya);

- intellektual mulk va mualliflik huquqlarini qonuniy himoya qilish (deyarli barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida);

- foizsiz kreditlar berish (Shvetsiya);

- tadqiqot va ishlanmalar uchun maqsadli subsidiyalar (deyarli barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida);

- potensial tijorat riskini hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish fondlarini tashkil etish (Angliya, Germaniya, Fransiya, Shveytsariya, Niderlandiya);

- innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarining 50 % gacha bo'lgan grantlar (Germaniya);

- davlat bo'jlarini kamaytirish va yakka tartibdagi ixtirochilar uchun soliq imtiyozlarini berish (Avstriya, Germaniya);

- energiya tejash sohasidagi ixtirolar uchun to'lovlarni kechiktirish yoki ulardan ozod etish (Avstriya);

- yakka tartibdagi ixtirochilar uchun patent idoralarida bepul xizmat ko'rsatish va to'lovlardan ozod qilish (Niderlandiya, Germaniya);


- xorijiy iste'dodlarni aniqlash va jalb qilish dasturlari (ko'plab Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida).

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion klaster siyosatining amalga oshirilishi klasterga asoslangan kompaniyalar o'rtasida unumdorlik va innovatsiyalar darajasining oshishiga, kichik va o'rta biznes rivojlanishiga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining ko'payishiga hamda klasterlar joylashgan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning jadallashuviga olib keldi. Bu jarayonlar milliy iqtisodiyotni sezilarli darajada mustahkamlaydi. Amaliy tadqiqotlar klaster tizimlarining ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy shakllaridan ustunligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda turli xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan klaster tashabbuslarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ushbu mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshiradi va milliy iqtisodiyotni boshqarishni optimallashtiradi.

Yangi texnologiyalarni yaratish, chuqur texnologik modernizatsiya qilish, mahalliy yoki import qilingan texnologiyalarga asoslangan innovatsion sanoatni rivojlantirish, shuningdek, yangi sanoat va texnologik landshaft sharoitida faoliyat yuritiladigan kadrlarni tayyorlash imkonini beruvchi innovatsion klasterlarning faoliyati uchta o'zaro bog'liq tashkiliy komponent mavjudligi bilan tavsiflanadi, ya'ni fundamental va amaliy fan, innovatsion sanoat hamda rivojlanayotgan ta'lim tizimi.

Bizning fikrimizcha, mintaqaviy innovatsion klaster tuzilmasiga moliyaviy kapital infratuzilmasini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy funksiyalari pul muomalasini tashkil etish va unga xizmat ko'rsatish, shuningdek, innovatsion klasterda ishtirok etuvchi tashkilotlarning muayyan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha zarur moliyaviy resurslarini birlashtirishdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion klasterning tuzilishi



Moliyaviy kapital institutlarining klaster shakllanishidagi ishtiroki rivojlanish mobilligini oshirish va butun klasterning texnologik salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq strategik ustunliklarga erishish imkonini beradi. Innovatsion klaster iqtisodiy shakllanishning boshqa turlaridan farq qiladi, chunki uning tarkibidagi tashkilotlar to'liq birlashmaydi, balki klaster ichida va undan tashqarida boshqa tashkilotlar bilan bir vaqtning o'zida hamkorlik qilib, yuridik shaxs maqomini saqlab qolgan holda o'zaro ta'sir mexanizmini shakllantiradi. Klaster yondashuvi bir qator afzalliklarni ta'minlaydi: hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mintaqaviy savdo balansini yaxshilash, bandlik darajasini oshirish, budjetga tushumlarning ko'payishi va boshqa ijobiy natijalar; muayyan vaqt va makon doirasida fundamental innovatsiyalarni birlashtirish hamda yangi bilim va texnologiyalarni uzatish tizimini shakllantirish; texnologik bilim va aloqalarning barcha mavjud manbalaridan foydalanish imkoniyati; yagona mintaqaviy va iqtisodiy makon doirasida "umumiy innovatsion mahsulot"ni tezkor tarqatish; mahsulot sifati va raqobatbardoshligining oshishi. Klaster tuzilmalarining samaradorligi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining oshishi, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi va sinergetik ta'sirlarning yuzaga kelishi orqali namoyon bo'ladi.

Uzoq muddatli hamkorlar sifatida yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan barqaror hamkorlik munosabatlarini shakllantirish nuqtai nazaridan innovatsion klasterni baholash muhim hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, klaster tuzilmasini yaratishning markaziy mezon mahsulot hayot aylanishini qamrab olish darajasi bo'lib, u klaster tashkil etilishidan oldin va keyin ishlab chiqish, ishlab chiqarish hamda sotish bosqichlaridagi individual operatsiyalar soni nisbatida belgilanadi. Klaster tuzilmasini tashkil etuvchi tashkilotlarning umumiy qiymati, odatda, ularning individual bozor qiymatlari yig'indisidan yuqori bo'ladi. Mazkur va boshqa ko'rsatkichlar sinergetik ta'sirlarni baholashda qo'llanishi mumkin. Raqobatbardoshlikni oshirish nuqtai nazaridan baholash esa ichki va tashqi biznes aloqalarini optimallashtirish orqali tashkilot faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yaqin kelajakda tarkibiy islohotlarning asosiy yo'nalishi innovatsion klasterlarni shakllantirish orqali innovatsion ishlab chiqarishga kapital qo'yilmalarni ko'paytirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish bo'lishi kerak. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion klaster siyosatini amalga oshirishning samarali mexanizmlaridan biri mahalliy hokimiyat organlari, tijorat sheriklari hamda institutsional xususiy investorlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan davlat-xususiy sheriklikdan foydalanishdir. Bu holatda davlat hokimiyat organlarining roli amalga oshirilayotgan loyihalarni umumiy qo'llab-quvvatlash bilan belgilanadi, bu esa katta moliyaviy investitsiyalarni talab etmaydi va investitsiyalarning daromadliligi bo'yicha muayyan kafolatlarni ta'minlaydi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion klasterlarni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlar klaster ishtirokchilari o'rtasidagi samarali o'zaro ta'sir orqali biznesning raqobatbardoshligini rag'batlantiradi, innovatsiyalar, texnologiyalar, nou-xau, ixtisoslashgan xizmatlar hamda yuqori malakali xodimlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va yuqori samarali qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Innovatsion klasterlarni rivojlantirishda qo'llaniladigan moliyaviy va iqtisodiy mexanizmlar klasterlarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab farqlanadi. Har bir klasterni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan universal vositalar to'plami mavjud emas. Ular har bir aniq hududiy birlashmada aniqlangan muammolarga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Innovatsion klasterlarni rivojlantirish malakali mutaxassislar, ya'ni ishchilar, texniklar, muhandislar, tadqiqotchilar, patent mutaxassislari, texnologiya brokerlari, iqtisodchilar va boshqa mutaxassislar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishni ham nazarda tutadi. Klasterlar ta'lim, ilmiy va sanoat salohiyati sezilarli darajada to'plangan mintaqalarda rivojlanishi maqsadga muvofiq. Infratuzilmani rivojlantirish hamda tajriba inshootlarini modernizatsiya qilishga yo'naltiriladigan investitsiyalar darajasi ham katta ahamiyatga ega. Innovatsion klaster siyosati choralarini amalga oshirish nafaqat butun qiymat zanjiri bo'ylab raqobatbardoshlik va unumdorlikning oshishida, balki asosiy vositalarni sotib olish va modernizatsiya qilish xarajatlari takrorlanishining kamayishida, logistika ta'minoti xarajatlarining qisqarishida, boshqaruv xatolari va natijada kechikishlar ehtimolining pasayishida hamda monitoring va nazorat xarajatlarining kamayishida ham ifodalanadigan turli ijobiy iqtisodiy samaralarga olib kelishi kerak. Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli innovatsion klaster ayrim sanoat tarmoqlarining tarkibiy qayta tuzilishiga kuchli ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiyotning tegishli yuqori texnologiyali tarmoqlarida boshqa klasterlarning rivojlanishiga turtki berishi mumkinligini ham qo'shimcha qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Портер М. «Конкуренция» : пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 608 с.
2. Andrés Rodríguez-Pose, Fabrice Comptour. Do Clusters Generate Greater Innovation and Growth? An Analysis of European Regions // Bruges European Economic Research Papers. – № 21, 2011.



3. Меньшенина И. Г. Региональные кластеры как форма территориальной организации экономики // Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук.
4. Audretsch D. B., Feldmann M. P. Innovative Clusters and the Industry Life Cycle // Review of Industrial Organization. – 1996. – № 11. – P. 253–273.
5. Розенфельд С. Кластер: стратегии экономического развития. – Карборо, NC: Regional Technology Strategies, Inc., 2002.
6. Feser E. J. Old and New Theories of Industry Clusters // Steiner (Ed.). Clusters and Regional Specialisation: On Geography, Technology and Networks. – London: Pion, 1998. – P. 18–40.
7. Миграян А. А. Теоретические аспекты формирования конкурентоспособных кластеров в странах с переходной экономикой / А. А. Миграян // Вестник КРСУ. – 2002. – № 3. – С. 33.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
